

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 82-1/-9

MAKON VA ZAMON TUSHUNCHALARINING NAVOIY VA SHEKSPIR ASARLARIDAGI BADIY IN‘IKOSI¹

Tadjibayev Musajan Sabirovich

*O‘zbekiston davlat jahon
tillari universiteti professori, filologiya
fanlari doktori, Toshkent, O‘zbekiston*

E-mail: musajants@gmail.ru**Ma‘diyeva Adiba Dovudovna**

*filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
katta o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston*

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-3084-6616

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Ushbu maqola o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiy va ingliz adabiyotining dahosi Uilyam Shekspir ijodida makon va zamon tushunchalarining badiiy-estetik talqinini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda makon va zamon kategoriyalarining falsafiy mohiyati, ularning badiiy tafakkurdagi o‘rni hamda adabiy matnda vaqt va joyni ifodalovchi lingvopoetik vositalar izchil o‘rganilgan.

Maqolada zamonning ontologik va estetik qirralarini – real (taqvimiy) vaqt va badiiy (adabiy) vaqt shakllarini farqlab, Navoiy va Shekspir asarlarida vaqt va makonning badiiy talqini orqali inson taqdiri, ruhiy kechinma, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni yoritilgan. Navoiyda vaqt tushunchasi “umr”, “taqdir”, “davr” kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u inson umrining o‘tkinchiligi, ma‘naviy kamolot va ilohiy iroda bilan aloqada tasvirlanadi. Shekspirda esa vaqt faol dramatik unsurga aylanadi – u harakat, o‘zgarish va insoniy fojeaning bosh omiliga aylangan.

Maqolada zamonning til va madaniyatdagi ifodasi turli darajalarda – leksik, grammatik, frazeologik va deytik vositalar orqali tahlil qilinadi. Ingliz tilida zamon kategoriyasining 12-16 shaklli tizimi hamda ularning o‘zbek tiliga tarjimadagi semantik mosliklari, tarjimada vaqtning semantik noaniqligi muammosi ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari badiiy asar tahlilida zamon va makon birliklarini faqat adabiy kategoriya emas, balki madaniy-falsafiy paradigma sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Makon, zamon, badiiy
vaqt, falsafiy vaqt,
Navoiy, Shekspir,
arxisema, arxetip, adabiy
makon, lingvopoetika,
gerbarizm, zamon
kategoriyasi, tarjima,
badiiy tafakkur.

Received: August 19,
2025**Accepted:** September 11,
2025**Available online:**
November 16, 2025¹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Tadjibayev M., Ma‘diyeva A. Makon va zamon tushunchalarining Navoiy va Shekspir asarlaridagi badiiy in‘ikosi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 6-17.

ARTISTIC REFLECTION OF SPACE AND TIME CONCEPTS IN THE WORKS OF NAVOI AND SHAKESPEARE

Tadjibayev Musajan Sabirovich

Professor at Uzbekistan State World

Languages University,

Doctor of Philological Sciences,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: musajants@gmail.ru

Madiyeva Adiba Dovudovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,

Senior Lecturer at Uzbekistan State

World Languages University,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-3084-6616

ABSTRACT

KEY WORDS

This article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of space and time concepts in the works of Alisher Navoi, the great representative of Uzbek classical literature, and William Shakespeare, the genius of English literature. The study systematically examines the philosophical essence of space and time categories, their role in artistic thinking, and the linguopoetic means of expressing time and place in literary texts.

Space, time, artistic time, philosophical time, Navoi, Shakespeare, archiseme, archetype, literary space, linguopoetics, herbalism, category of time, translation, artistic thinking.

The article distinguishes between ontological and aesthetic aspects of time - real (calendar) time and artistic (literary) time forms, illuminating the harmony between human destiny, spiritual experience, society, and nature through the artistic interpretation of time and space in Navoi's and Shakespeare's works. In Navoi's works, the concept of time is closely linked to notions such as "life," "fate," and "era," depicted in connection with the transience of human life, spiritual perfection, and divine will. In Shakespeare's works, time becomes an active dramatic element - transforming into the primary factor of action, change, and human tragedy.

The article analyzes the expression of time in language and culture at various levels - through lexical, grammatical, phraseological, and deictic means. It also highlights the 12-16 form system of the tense category in English and their semantic correspondences in Uzbek translation, as well as the problem of semantic ambiguity of time in translation. The research results demonstrate the necessity of studying time and space units in literary analysis not only as literary categories but also as cultural-philosophical paradigms.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ ПОНЯТИЙ «ПРОСТРАНСТВО» И «ВРЕМЯ» В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НАВОИ И ШЕКСПИРА

Таджибаев Мусажан Сабирович

*доктор филологических наук, профессор,
Узбекский государственный университет
мировых языков, Ташкент, Узбекистан*

E-mail: musajants@gmail.ru

Мадиева Адиба Довудовна

*доктор философии (PhD) по филологическим
наукам, старший преподаватель
Узбекского государственного
университета мировых языков,
Ташкент, Узбекистан*

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-3084-6616

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Данная статья посвящена анализу художественно-эстетической интерпретации понятий пространства и времени в творчестве великого представителя узбекской классической литературы Алишера Навои и гения английской литературы Уильяма Шекспира. В исследовании последовательно характеризованы философская сущность категорий пространства и времени, их место в художественном мышлении, также лингвопоэтические средства выражения времени и места литературном тексте.

В статье рассматриваются онтологические и эстетические спектры времени – реальное (календарное) время и художественные (литературные) формы времени. Через художественную интерпретацию времени и пространства в произведениях Навои и Шекспира освещается гармония между человеческой судьбой, духовными переживаниями, обществом и природой. У Навои понятие времени тесно связано с такими концептами, как “жизнь”, “судьба”, “эпоха”, и осмысливается в контексте быстротечности человеческой жизни, духовного совершенствования и божественной воли. У Шекспира же время становится активным драматическим элементом – главным фактором действия, изменения и человеческой трагедии.

В статье анализируется выражение времени в языке и культуре на разных уровнях – посредством лексических, грамматических, фразеологических и дейктических средств. Рассматривается система временных категорий английского языка, состоящая из 12-16 форм, и их семантическое соответствие при переводе на узбекский язык, а также проблема семантической определенности времени в переводе. Результаты исследования оказывают, что при анализе художественного произведения необходимо изучать единицы времени и пространства не только как литературную категорию, но и как культурно-философскую парадигму.

Пространство, время, художественное время, философское время, Навои, Шекспир, архисема, архетип, литературное пространство, лингвопоэтика, эмблематика, категория времени, перевод, художественное мышление.

KIRISH

Makon va zamon tushunchalari inson tafakkuri tarixining eng qadimiy va eng muhim kategoriyalaridan biridir. Ular borliqni, inson mavjudligini va badiiy tafakkurning asosiy yoʻnalishlarini belgilab beradi. Har qanday voqea-hodisa makon va zamon doirasida sodir boʻladi, shuning uchun bu ikki tushuncha falsafaning, adabiyotshunoslikning va tilshunoslikning uzviy tarkibiy qismi sanaladi.

Sharq falsafasida zamon koʻproq maʼnaviy va ruhiy mohiyatda, inson umrining oʻtkinchiligi va ilohiy qadriyatlar bilan bogʻliq holda talqin qilinsa, Gʻarb tafakkurida u harakat, tarixiy jarayon va insoniy fojeaning markaziy oʻlchoviga aylanadi. Shu jihatdan Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir ijodi makon va zamonning badiiy talqinini oʻrganishda ikki madaniyat, ikki estetik paradigmaning tutash nuqtasini tashkil etadi.

Navoiy asarlarida vaqt “umrning oʻtkinchiligi”, “davrning adolati” yoki “taqdirning adolatli hukmi” sifatida falsafiy asosda ochib berilsa, Shekspirda vaqt faol dramatik obraz sifatida namoyon boʻladi. Masalan, Shekspirning sonetlarida vaqt inson hayotini yutuvchi, lekin sanʼat orqali yengilishi mumkin boʻlgan kuch sifatida tasvirlanadi. Navoiyda esa vaqt Alloh irodasining koʻzgusi, hayotning sinov maydoni sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globalizatsiya sharoitida Sharq va Gʻarb madaniy merosini qiyosiy tahlil qilish, zamon va makon kabi fundamental tushunchalarning milliy tafakkurdagi badiiy inʼikosini oʻrganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki umumiy insoniy qadriyatlar falsafasini tushunishga xizmat qiladi. Maqolada lingvopoetik, tarixiy-tipologik va qiyosiy tahlil usullari asosida Navoiy va Shekspir asarlarida zamon va makonning badiiy talqini, ularning poetik vositalar orqali ifodalanish mexanizmlari hamda madaniy-estetik ahamiyati yoritilgan.

ASOSIY QISM

Makon va zamon tushunchasi hamda muammosi barcha davrlarda olimlar, yozuvchilar yoxud oddiy odamlarning diqqat markazida boʻlgan. Turli davrlarda vaqt tushunchasiga turlicha fikrlar, izohlar berilgan. Misol uchun, mashhur rus olimi C.B.

Ojegov tuzgan rus tilining izohli lugʻatida shunday deyiladi: *“Время, -мени, мн. – мена, -мен, -менам, ст. 1. Одна из форм (наряду с пространством) существования бесконечно развивающейся материи – последовательная смена ее явлений и состояний. Вне времени и пространства нет движения материи.”*
- Vaqt, - Cheksiz rivojlanuvchi materiyaning mavjudlik shakllaridan biri (fazo bilan bir qatorda) boʻlib, uning hodisa va holatlarining ketma-ket oʻzgarishidir. Vaqt va fazodan tashqarida materiya harakati yoʻqdir. (Ojegov S., 1947, 288)

Zamon kategoriyasi materiyaning mavjudlik shakli boʻlib, moddiy jarayonlarning makon va zamonda keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davomiyligi va taraqqiyotini bildiradi. Barcha voqea-hodisa oʻz oʻtmishi, hoziri, kelgusiga ega. Narsa va hodisalarning baʼzi birlari avvalroq, boshqalari keyinroq sodir (mavjud) boʻladi. Mazkur holat esa zamon tushunchasi bilan ifodalanadi (Туленов Ж., Фафуров З., 1997).

Bu boradagi fikr va mulohazalar hamda falsafiy qarashlarni umumlashtirib vaqtga quyidagicha taʼrif berish mumkin boʻladi: zamon – maʼlum bir tayanch nuqtasi sifatida ajratib olinadigan, bir biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan, tebranuvchan jarayonlarni inson ongida aks ettirishga xizmat qiladigan subyektiv tushunchadir.

Zamon inson va borliqning mavjudligini namoyon etib turishda katta ahamiyatga ega boʻlgan fundamental elementlarning biridir. Aynan shu vazifasi tufayli inson ongida biror hodisa, reja yoki nutq shakllanar ekan, ushbu hodisa reja va nutq qaysidir vaqtda yoki davr mobaynida shakllanishi shubhasizdir. Nutq jarayonidagi barcha gaplar qaysidir vaqtni koʻrsatishni taqozo etadi. Zamon va makondan tashqari hech qanday fikrni bildirish mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin: nutq jarayonidagi har qanday tugallangan fikr (gap) vaqt bilan bogʻliq boʻladi va unga (gapga) “qachon” degan savol qoʻyish mumkin. Hattoki “Bahor!”, “Muhabbat!” kabi bir soʻzdan iborat boʻlgan, his-hayajonli gaplar ham zamon belgilarini oʻzida mujassam etadi. Misol uchun, “Bahor!” gapiga “qachon” savolini qoʻysak, yo “hozir” yoki “umuman” deb javob berish mumkin boʻladi.

Eng qadimgi davrlarda ham zamon muammosi faylasuflarning ham diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mana shunday qiziqish va tahlillar natijasida turli taqvimlar va vaqt o‘lchov birliklari ixtiro qilindi. Keyinchalik ushbu qiziqish adabiyotshunos va tilshunoslarni ham o‘z domiga torta boshladi. Mazkur holat o‘z navbatida adabiy asarlarning o‘ziga xosligi, ularda turli davrlarning o‘zaro bog‘liqligi, voqea-hodisalarning ketma-ketligi, qahramonlar taqdirLARining zamonlar va makonlar orqali bog‘liqligi, adiblarning qarashlarini ilmiy o‘rganishga bo‘lgan intilishni tobora kuchayib borishiga zamin yaratdi.

Vaqt va uni to‘g‘ri taqsimlash, foydali sarflash xususida “Vaqtning ketdi baxting ketdi”, “Vaqt eng adolatli hakam”, “Vaqt oqar suvday oqib ketar” kabi turli maqol va matallar ham borki, ushbu holat vaqt masalasi nafaqat olimlar va yozuvchilar balki xalq, oddiy odamlarni ham qiziqtiradi, barcha uchun birday dolzarblik kasb etadi degan fikrga boshlashi shubhasiz.

Vaqtni hozirgi ilmda asosan ikki shaklda – badiiy yoki adabiy va real yoki kalendar(taqvimiy) shakllarida ifoda etiladi. Vaqt tushunchasi turli ko‘rinishlarda – tarixiy, falsafiy, lingvistik – badiiy ijod xususiyatlari bilan yaqindan bog‘liqdir. Agar real vaqtni to‘xtatib yoki tezlashtirib, o‘zgartirib bo‘lmaydigan, bir yo‘nalishda harakat qiladigan unsur (harakatdagi materiya yo‘q joyda zamon va makon bo‘lmaydi) desak va u to‘xtay olmaydi desak, badiiy-adabiy vaqtni adib oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra orqaga yurgizishi, to‘xtatishi va hatto qahramonlarni normal ketma-ketlikni buzgan holda ancha oldingi (kelajakdagi) yoki tarixiy davrga olib borib tashlashi mumkin. Vaqt mashinasida zamonlar aro sayohat qiluvchi qahramonlar badiiy asarlarda istagancha topiladi.

Vaqt badiiy adabiyotda alohida mavzu sifatida keng qo‘llanib kelinayotgan unsurlardan biridir. Adabiy asar bilan bog‘liq bo‘lgan to‘rt vaqt (qachon savoliga javob bo‘ladigan davr) mavjud bo‘lishi mumkin. Bular: asar yozilgan va chop etilgan vaqt, asar voqealari so‘zlab berilayotgan vaqt, asardagi voqea-hodisalar yuz bergan vaqt, o‘quvchi asarni o‘qiyotgan vaqt. Ushbu to‘rt vaqt bir-biriga nisbatan yaqin bo‘lishi yoki ancha uzoq bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Valter Skotning “Rob Roy” asarini olsak. Biz uni XXI asrda turib o‘qiymiz; asar 1817-yili yozilib chop etilgan;

asar qahramonlari deyarli bir asr oldin mavjud bo'lgan va voqealari ham bir asr oldin sodir bo'lgan; so'zlovchi esa bir qariya va u so'zlayotgan vaqtdan 50-yil oldingi, yoshligidagi voqealarni aytib beradi. Uch asrlik davr ichida to'rtta alohida vaqt birligi.

Vaqt inson va borliq mavjudligining eng asosiy elementlaridan biri bo'lgani kabi nutq jarayonida va badiiy asarda ham eng asosiy elementlardan biridir. Har bir asar voqealari qaysidir vaqtda (davrda) o'z ifodasini topishi muqarrar. Ushbu vaqt xronologik tartibda, hozirgi real vaqt tartibida, o'tmishga yoki kelajakka nazar tarzida ifoda etilishi mumkin. Qanday bo'lmasin vaqt o'tib borishini nazarda tutgan xoldagina syujetni ochib berishga, qahramonlarni ta'riflab berishga imkoniyat bo'lishi mumkin. Badiiy asarda vaqtni ifoda etishgina emas, balki vaqt alohida hodisa sifatida ham yozuvchi va shoirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayrim holatlarda vaqt asarda ishtirok etayotgan qahramon yoki obraz darajasiga olib chiqilgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Vaqt haqida bir qator adiblar o'z fikrlarini ifoda etib o'tishgan. Xususan, buyuk Alisher Navoiy vaqt va umr xususida shunday deydi:

Ko'p uxlash oz umr ko'rish demakdir,

Uyquga ketgan vaqt ketgan umrdir.

Shekspir esa vaqtga atab, vaqtga murojaat etib, uni jonlantirish asnosida butun boshli bir sonet yozgan. Sonetda vaqt tushunchasi butun boshli insonga, shaxsga aylanadi, jonlanadi, o'quvchi ko'z o'ngida jonli mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

Ana shu sonetni tarjima qilishga urinib ko'rdik.

Arslon panjasin kuchsiz aylagin ey vaqt.

Yerdan chiqqan xar narsa tuproqqa qaytsin.

Yo'lbars tishlarin to'kib aylagin karaxt.

Qaqnus yonib kulidan tirilaversin.

O'z ishing beto'xtov qilsang-da ey vaqt,

Yor she'rimda yosh yashar abadul abad.

Turli til materiallari va badiiy asarlarda vaqt tushunchasini ifoda etuvchi vositalarni o'rganib tahlil qilish, ularni to'g'ri tushunib talqin qilish va bir tildan

ikkinchi tilga o'g'irishning samarali usullaridan foydalanishni yo'lga qo'yish alohida ahamiyat kasb etadi.

Barcha tillarda bo'lgani kabi ingliz tilida ham zamon va vaqtni ifoda etish masalalari bir qator olimlarni qiziqtirib kelgan. Grammatik zamon kategoriyasi, deydik ifoda vositalari va boshqalar xususida dunyo yuzini ko'rgan ilmiy ishlar ana shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotda biz o'z oldimizga ingliz tilida qo'llaniladigan badiiy-adabiy va real vaqt orasidagi farqlar va o'xshashliklar nuqtayi nazaridan fe'ning zamon shakllari, leksik, frazeologik va deydik ifoda vositalarining badiiy matnda berilishi va ana shunday vositalarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari ustida tizimli tahlil olib borishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Nutq jarayonida vaqtga murojaat qilishning, vaqtni ko'rsatishning, vaqtni ifoda etishning bir necha usullari mavjud. Vaqt leksik vaqt birliklari bilan ifoda etilishi mumkin (asrlar, yillar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar minut va soniyalar); vaqtni deydik (ko'rsatib) aytish mumkin (o'sha payt, hozirgi davr, shu zamon, shundan so'ng, kelgunicha, ovqatlanishdan oldin, keyin va h.k.va h.k.); frazeologik birliklar yordamida ifoda etish mumkin (so'fi azon chaqirmay, xo'roz ikkinchi qichqirishida, kallayi saharlab, qaro tunda) va grammatik vositalar (fe'ning zamon kategoriyasi) orqali ifoda etish mumkin.

Ingliz tilida ham vaqtni aynan mana shu to'rt turdagi til birliklari orqali ifoda etiladi. Bunda leksik birliklar yesterday, today, tomorrow last year, next year, in December, in 1948, on Wednesday kabilar bo'lsa, deydik birliklarga that, previous year, at this moment, after (before) having breakfast kabi vaqtni ko'rsatuvchi, ish harakat sodir bo'lgan (bo'ladigan) vaqtga ishora etuvchi vositalar kiradi. Ingliz tilida vaqtni ifoda etuvchi frazeologik birliklar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda ingliz tilida muloqot qilayotgan shaxs muloqotning samarali bo'lishida ushbu frazeologik birliklarning ma'nosini oldindan o'rgangan bo'lishi katta ahamiyatga ega. Misol uchun, quyidagi frazeologik birliklar va kolokatsiyalarni olaylik: At the crack of dawn, on the dot, the early bird catches the warm, in the nick of time, a month of Sundays, after the watershed, eleventh hour, feast today and famine

tomorrow, kabilarni to‘laqonli tushunish va o‘zbek tiliga tarjima qilishda albatta ushbu til birliklari bilan tanish bo‘lish muloqotning va tarjimaning to‘laqonli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Vaqtni ifoda etuvchi grammatik vosita – zamon kategoriyasi alohida e‘tiborni talab qiladi. Ingliz tilidagi zamon shakllari va aspektlari xususida anchayin to‘liq va mukammal fikrlar berib o‘tilgan. Shunga qaramay, zamonaviy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan ham bir muncha munozarali qarashlar berilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni, an’anaviy adabiyotlarimizda ingliz tilida 4 ta zamonning 4 tadan aspektlari bor, shunday qilib 16 ta (aniqlik nisbati) zamon shakllari mavjud degan fikr ko‘p uchraydigan hol bo‘lsa, g‘arb adabiyotlarida 3 ta zamon, 4 ta aspekt, shunday qilib, 12 zamon shakli mavjud degan fikr keng tarqalgan.

Ingliz tilidagi zamon shakllarini o‘zbek tiliga tarjima qilish ham o‘ziga yarasha murakkabliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Misol uchun, Xeminguey qalamiga mansub “Quyosh yana porlayveradi” asaridan olingan quyidagi gapga e‘tiborimizni qaratsak: “He cared nothing for boxing, in fact he disliked it, but he learned it painfully and thoroughly to counteract the feeling of inferiority and shyness he had felt on being treated as a Jew at Princeton”. Ushbu gap o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: *“Aslida Robertda boksga moyillik yo‘q edi, aksincha boks desa ishqori ozardi, lekin shunday bo‘lsa ham o‘lib tirilib, qunt bilan boks tushishni o‘rganardi. Yahudiylarga past nazar bilan qaraladigan Prinstonda u jur‘atsizligi hamda beqadrligidan o‘ksish tuyg‘usidan xalos bo‘lish uchun ham shunday qilardi”*. Ushbu gapning he had felt on being treated as a Jew at Princeton (o‘tgan tugallangan zamon) orqali adib Kondagi jur‘atsizlik hamda beqadrlilik tuyg‘ulari u boks bilan shug‘ullana boshlagandan oldin mavjud bo‘lganligini va bokschi bo‘lgandan keyin bunday hislardan xalos bo‘lganini aytmoqchi bo‘ladi. Tarjimada esa bu fikr to‘laqonli aks etmagan, ya’ni Kon o‘sha hislardan qutula olgan olmaganligi noma’lum qolgan. Mana shu bir qarashda arzimaganay ko‘ringan detalning noaniq qolishi asarning mohiyatini to‘la anglab yetishga xalaqit qilishi

mumkin, zero Robert Kon asarning (murakkab xarakterga ega bo'lgan) asosiy qahramonlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida ayrim zamon va makon kategoriyalarini bir necha tillar materiallari asnosida tahlil qilishga harakat qildik. Vaholanki, bu kategoriyalar real hayotda turli xalqlar tomonidan bir xil yoki o'xshash tushuncha sifatida, biroq turli til vositalari bilan tavsif qilinadi. Yuqoridagilardan xulosa sifatida keltirilgan fikrlar nafaqat badiiy kategoriya, balki real vaqtning tizimli o'lchovi sifatida ham olinishi kerak. Zero zamon va makon kategoriyalari ilmda dunyoning mavjudlik sharti sifatida inson ongi paradigmalarining mavjudligini ta'minlaydi.

XULOSA

Makon va zamon kategoriyalari har ikki adabiyot – Sharq va G'arb badiiy tafakkurida insoniyatning borliqni idrok etish shaklini ifodalaydi. Alisher Navoiyda makon va zamon Alloh irodasining timsoli, inson hayotining ma'naviy mezoni sifatida talqin qilinadi. Shekspirda esa ular dramatik qarama-qarshiliklarni kuchaytiruvchi estetik vosita, insoniy fojeaning metaforik o'lchoviga aylanadi.

Har ikki ijodkorning asarlarida vaqt – inson hayotining ma'nosi va qadriyatlar mezoni, makon esa ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlarning maydoni sifatida gavdalanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Navoiyda vaqtning badiiy talqini tasavvufiy va ruhiy ramzlar orqali ifodalansa, Shekspirda vaqt hayotiy tajriba, o'tkinchilik va abadiyat o'rtasidagi falsafiy ziddiyat sifatida tahlil etiladi.

Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda makon va zamon kategoriyalarining qiyosiy tahlili lingvokulturologiya, semiotika va estetika sohalarida yangi yondashuvlar uchun asos yaratadi. Shu bois ushbu maqola Navoiy va Shekspir asarlaridagi zamon va makonning badiiy-estetik ifodasini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Туленов Ж., Гафуров З. Фалсафа. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
2. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. Автореф. дис. докт. филол. наук.
3. Арнольд И.В. Лексическо-семантическое поле в языке и тематическая сетка текста. – Л., 1984.
4. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л., 1977.
5. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2003.
6. Bakhtin M. Forms of Time and Chronotope in the Novel. In Dialogic Imagination. – Austin: University of Texas Press, 1981.
7. Todorov T. The Poetics of Prose. – Ithaca: Cornell University Press, 1977.
8. Mirvaliyev S. Navoiyda zamon va makon poetikasi. – Toshkent: Fan, 2014.
9. Bloom H. Shakespeare: The Invention of the Human. – New York: Riverhead Books, 1998.
10. Ricoeur P. Time and Narrative. – Chicago: University of Chicago Press, 1984.

REFERENCES

1. Tulenov, J., & Gafurov, Z. (1997). *Falsafa* [Philosophy]. Tashkent: O‘qituvchi.
2. Rakhimov, S. (2000). *Rechevaya kommunikatsiya i problema deyksisa v raznosistemnykh yazykakh* [Speech communication and the problem of deixis in languages of different systems] (Doctoral dissertation abstract). Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent.
3. Arnold, I. V. (1984). *Leksicheskoe-semanticheskoe pole v yazyke i tematicheskaya setka teksta* [The lexical-semantic field in language and the thematic network of the text]. Leningrad: Nauka.
4. Jirmunskiy, V. M. (1977). *Teoriya literatury. Poetika. Stilistika* [Theory of literature, poetics, and stylistics]. Leningrad: Nauka.
5. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

6. Bakhtin, M. M. (1981). *Forms of time and chronotope in the novel*. In M. Holquist (Ed.), *The dialogic imagination* (pp. 84–258). Austin: University of Texas Press.
7. Todorov, T. (1977). *The poetics of prose*. Ithaca, NY: Cornell University Press.
8. Mirvaliyev, S. (2014). *Navoiyda zamon va makon poetikasi* [The poetics of time and space in Navoiy's works]. Tashkent: Fan.
9. Bloom, H. (1998). *Shakespeare: The invention of the human*. New York: Riverhead Books.
10. Ricoeur, P. (1984). *Time and narrative* (Vol. 1). Chicago: University of Chicago Press.